

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasи, PhD Siddiqova Shoxida Isoqovna taqrizi ostida

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (ONA TILI DARSЛАRI MISOLIDA)

Xoliquova Matluba Mardon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи assistenti

xoliquovamatluba5@gmail.com

Telefon raqam:+99899773-36-01

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish usullarini takomillashtirish metodikasi mavzusi zamonaviy ta’lim jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanishi hamda ushbu yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga, ya’ni ular o‘rtasidagi samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishga qaratilishi haqidagi fikrlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, o‘qitish usullari, takomillashtirish metodikasi, ona tili darslari, o‘quvchi.

Аннотация: В данной статье тема методики совершенствования методов обучения на основе коммуникативного подхода в начальном образовании рассматривается как один из актуальных вопросов современного образовательного процесса, и данный подход способствует развитию коммуникативной компетентности учащихся, то есть установить эффективную коммуникацию между ними, информацию о мнениях по поводу фокуса.

Ключевые слова: коммуникативный подход, начальное образование, методика обучения, методика совершенствования, уроки родного языка, учащийся.

Annotation: In this article, the subject of the methodology of improving teaching methods based on the communicative approach in primary education is considered one of the urgent issues in the modern education process, and this approach helps to develop the communicative competence of students, that is, to establish effective communication between them. information about the opinions about the focus on.

Key words: communicative approach, primary education, teaching methods, improvement methodology, mother tongue lessons, student.

KIRISH. Jamiyatning buguni va kelajagi, uning madaniy-ma’rifiy va ma’naviy salohiyati ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi va murabbiylarga bog‘liq. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda o‘qituvchilar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklatilgan, O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlod ishonib topshirilgan. Shuning uchun har bir o‘qituvchi bu katta ishonchni o‘zining pok vijdoni va mas’uliyat hissi bilan oqlashi zarurdir. Buning uchun u tinimsiz izlanishi, jamiyatimizda sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishi, yangi pedagogik texnologiyarni o‘z faoliyatida doimiy qo‘llab borishi kerak.

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtida butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o‘zini adekvat tutishga o‘rgatishdir. Ya’ni bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o‘zaro ta’sir va kommunikativ maqsadga erishishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash borasida “Ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish” ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1].

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

“QUVNOQ HARFLAR” usuli

Tavsifi: Quvnoq harflar o‘yini o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini boyitish hamda xotirasini mustahkamlashda yaxshi samara beradi. O‘yin davomida o‘quvchilar so‘zlarni tez topa olishlari va o‘z o‘rniga qo‘yishlari lozim bo‘ladi. Ishtirokchilar bir-birlari bilan musobaqa tarzida bellashadilar. Bu ta’limiy o‘yin orqali o‘quvchilarning yozma-og‘zaki so‘z boyligi va kundalik hayotdan oлган bilimlari sinovdan o‘tkaziladi.

Erishiladigan natija: O‘quvchilarda bu usul orqali o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti, taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti, o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti, katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishslash amaliyoti va ko‘nikmalarini rivojlantiriladi.

Qo‘llanilish doirasi: Bu o‘yindan barcha fanlar va mavzularda foydalanish mumkin. Osanova Kamola Saypillayevna Sahifa 21 4 “K” modeli ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi innovatsion usullar

Foydalanish vositalari: Quvnoq harflar jadvali A4 formatidagi qog‘ozga chiqarilib, ishtirokchilarga tarqatiladi.

O‘tkazilish tartibi: O‘yinni yakka, juftlik yoki guruhlarda o‘tkazish mumkin. Har bir guruhga A4 formatidagi jadval chizilgan mavzu yoki biror tushunchaga oid so‘zlar yozilgan qog‘oz tarqatiladi. O‘quvchilar so‘zlarning bosh harfining alifbodagi tartib raqami, bosh harfidan boshlanuvchi ism, joy nomi, hayvon nomi, o‘simlik nomini yozishlari kerak bo‘ladi. Har bir qator 1 ta shart hisoblanib 1 daqiqa vaqt beriladi. Harf nomidan so‘zni guruh nomi yoki mavzuni nomidan kelib chiqib berish mumkin. Kim birinchi so‘z topib yozib bo‘lsa shu guruh yoki o‘yinchi g‘olib bo‘ladi. Harf nomi tartib raqami Ism nomi Joy nomi B 2 Barno Hayvon nomi O‘simlik nomi Buxoro A 1 Alisher bo‘ri behi Andijon ayiq anjir H O R Harf nomi Tartib raqami Ism nomi Joy nomi Hayvon nomi S 18 Sardor O‘simlik nomi Sirdaryo O 17 Odina sigir sabzi Olmaliq N 16 [2].

Ijtimoiy hayotda yashayotgan har bir inson o‘zgalarni tinglash, o‘z fikrini birovlarga yetkazish, ya’ni gapirish, fikrlarini ba’zan yozma tarzda bayon eta olish, insonlar bilan muloqotga kirisha olish xislatlariga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy o‘qituvchining vazifalaridan biri sifatida qaralishi hamda uni hal qilish sinfda ham, o‘quvchilarning darsdan tashqari bo‘lgan faoliyatida ham amalga oshirilishi kerakligini nazarda tutadi.

Bola maktab yoshigacha boshqa odamlarning o‘z nuqtayi nazaridan farqli bo‘lishi mumkinligini bilishi va bu haqiqatni ma’lum darajada hisobga olishi kerak. Biroq, boshlang‘ich sinflarda ta’lim va do’stlik munosabatlarini shakllantirish orqali yuzaga keladigan ijtimoiy tajribaning bosqichma-bosqich to‘planishi uni turli odamlarni turli nuqtayi nazarga olib keladigan sabablarni tushunishga undaydi, oldindan bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Suhbatdoshning boshqa ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlardagi mumkin bo‘lgan farqlar mavjud bo‘ladi. O‘zining va boshqa odamlarning fikrlarini taqqoslab, bola ham o‘z pozitsiyasida bahslashishni, uni asoslashni o‘rganadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Muloqot, hamkorlik sifatida, hamkorlik va o'zaro ta'sirni o'rnatish va amalga oshirishga qaratilgan kommunikativ ta'lim harakatlari guruhini o'z ichiga oladi. Ushbu harakatlarning mohiyati umumiy maqsadga erishishda sa'y-harakatlarni birlashtirishdan iborat bo'lib, buning uchun suhbatdoshta e'tibor qaratish kerak [3].

Natijalar va muhokamalar. Yondashuv bu o'qitish va o'rganishga qarashning bir usuli. Har qanday tilni o'rgatish yondashuvi asosida til nima ekanligini va uni qanday o'rganish mumkinligi to'g'risida nazariy qarash mavjud. Yondashuv o'quvchilarni o'rganishga yordam beradigan sinf mashg'ulotlari yoki metodlaridan foydalanadigan usullarni, biror narsani o'rgatish usulini keltirib chiqaradi. Kommunikativ yondashuv bu tilni o'qitishning eng taniqli hozirgi yondashuvi. Vazifalar asosida o'qitish bu u bilan bog'liq bo'lgan metodologiya. Boshqa yondashuvlarga kognitiv-kodli yondashuv va og'zaki-og'zaki yondashuv (audiolingual usul) kiradi.

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtida butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri. Uning asosiy maqsadi tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o'zini adekvat tutishga o'rgatishdir. Ya'ni, bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o'zaro ta'sir va kommunikativ maqsadga erishishdir. Ma'lum bo'lishicha, biz har qanday til hodisasini faqat bilish uchun emas, balki nutqda qo'llay olish uchun ham o'rganamiz [4].

Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga til haqida ma'lum bilimlar to'plamini berish emas, balki ularni muloqot qilish uchun tildan foydalanishga o'rgatishdir. Tinglash va gapirish asosiy ko'nikmalar hisoblanadi. Chunki ular nutq jarayonida fikr almashishga va fikrni yetkazib berishda qo'llaniladi. Ona tilida bolalar juda tabiiy holda tinglashadi va gapirishadi. Chunki atrofdagi insonlar ular bilan o'zlarining ona tilisida muloqot qilishni ma'qul ko'rishadi. Ammo ikkinchi tilda muloqot qilishga kelganda, ular fikrlarini bayon etishga qiynalishadi. Bunday muammolar, albatta, ikkinchi tilda kam muloqot mahorati shakllanganligidan darak beradi.

Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amaliyatga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto, texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab to'g'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda [5].

Kichik yoshdagagi o'quvchilarning nutqini takomillashtirish ustida ishlash nafaqat fikrni (og'zaki va yozma shaklda) ifodalash, balki ularni qabul qilishni ham nazarda tutadi. O'quvchilarga maxsus kommunikativ mashqlarni bajartirish ham nutq faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Ya'ni, o'quvchi ma'lumotni shunchaki qabul qilmasin yoki o'qituvchining topshirig'i bilan qayta hikoyalamasin. Bunday mashqlar nutq faolligi ta'minlashga yo'naltiradigan, fikr aytishga talablar qo'yadigan vaziyatlarni yaratishga xizmat qilishi lozimligi ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir [6].

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonli, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilganligi qayd etilgan.

O'quvchilarda fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham g'amxo'rlik qiladi

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

XULOSA. Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish usullarini takomillashtirish o‘quvchilarning amaliy bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun o‘qituvchi dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil qilishi lozim. Shu bilan birga, didaktik materiallardan ijodiy foydalanish va o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz//docs/5841063>.

2. Osanova K.B., “4 “K” modeli ko‘nikmalarinni rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish” uslubiy qo‘llanma. Jizzax 2024. B.20-23.

3. Xamidova D., Fayziyev M “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ ta’lim harakatlarini shakllantirishning pedagogik tashkiliy masalalari”. “BILIG-ILMIY FAOLIYAT” nashri [http://journal.bilik.uz](http://journal.bilig.uz). FTAI jild:04. Nashr:03. May 2023. B.88.

4. Saidova Mukhayyo Umedilloevna, Associate Professor of English Linguistics Department, PhD Bukhara State University (Uzbekistan) m.u.saidova@buxdu.uzBoboeva Zarina Rajab qizi, Master Degree Student, Bukhara State University (Uzbekistan) z.r.boboyeva@buxdu.uz. integration of pragmalinguistics, functional translation studies and language teaching processes International Scientific Conference February 22-23, 2023333. Kommunikativ yondashuv orqali nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish.

5. Rasulova Feruzaxon Turdiqulovna. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 83-maktab Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Ona tili darslarini tashkil etishda kommunikativ yondashuv. Ustozlar uchun www.pedagoglar.uz. 44-son 5-to‘plam may 2023. B. 257.

6. Q.Husanboyeva., M.Hazratqulov va b. “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi”. Oliy o‘quv yurtining pedagogika fakultetlari (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) talabalari uchun darslik. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020. B.345.